



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-77-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Dolzarb 90 kunlik" dasturi doirasida tibbiyot va ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025 yil 7 may kuni tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi hamda 2025 yil 15 may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishlarida berilgan topshiriqlarni ijrosi ta'minlash maqsadida, Kattaqo'rg'on tumani hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Dolzarb 90 kunlik" dasturi doirasida tibbiyot va ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o'n birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo'rg'on tumani hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Dolzarb 90 kunlik" dasturi doirasida tibbiyot va ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti shartli ravishda qabul qilinsin.

2. Kattaqo'rg'on tumani hokimi o'rribbosari (O.Shirinov), tuman tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (SH.Sultonov), tuman Yoshlar ishlari bo'limi (L.Abduqaxxorov) va tegishliligi bo'yicha tumandagi korxona, tashkilot hamda muassasa rahbarlariga:

- tibbiyot va ta'lim muassasalarida "dolzarb 90 kunlik" tadbirlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish;

- tumandagi har bir tibbiyot muassasasida be'morlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan to'liq tanishish va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish choralarini ko'rish;

- aholi va be'morlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini monitoring qilish va sohada korrupsiyon holatlarga yo'l qo'yilmasligi hamda oldini olish bo'yicha tegishli choralarini ko'rish;

- bemorlarga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish va belgilangan tartibda bepul dori vositalari bilan ta'minlash;

- tumandagi kambag‘al oilalar a’zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va kasallik aniqlangan be’morlarni o‘z vaqtida davolash choralarini ko‘rish;

- tumandagi har bir ta’lim muassasasining holatini o‘rganish va ta’mirga ehtiyoji bor muassasalar ro‘yxatini shakllantirish hamda ularni bartaraf qilish choralarini ko‘rish;

- yozgi ta’til davomida o‘quvchilarning bo‘sish vaqtlarini samarali o‘tkazish maqsadida fan to‘garaklari hamda hunarmandchilik to‘garaklari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

- yozgi ta’til davomida tuman miqyosida fan olimpiadalari, sport musobaqalari va turli ko‘rik-tanlovlari o‘tkazish reja-grafigini ishlab chiqish va ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash;

- o‘qish davrida o‘zlashtirishi past bo‘lgan va tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan alohida ish olib borish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

3. Kattaqo‘rg‘on tumanı hokimi o‘rinbosari (O.Shirinov) tibbiyot va ta’lim muassasalarida “dolzarb 90 kunlik” tadbirlari doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan aniqlangan kamchiliklarni ikki hafta muddatda bartaraf etish choralarini ko‘rish hamda bartaraf etilganligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamasida tuman tibbiyot birlashmasi va tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi rahbarlari bilan birgalikda hisoboti eishitish tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi tahririysi (O‘.Usmonov)ga:

- tibbiyot va ta’lim muassasalarida “dolzarb 90 kunlik” tadbirlari doirasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o‘tkazilayotgan tadbirlar hamda targ‘ibot ishlari to‘g‘risida OAV orqali yoritib borish vazifasi yuklatilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (M.Zavqiyev, O.Shirinov, S.Djumayeva)ga:

- tibbiyot va ta’lim muassasalarida “dolzarb 90 kunlik” tadbirlari doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda monitoring olib borish;

- monitoring natijasida aniqlangan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf qilish choralarini ko‘rish;

- monitoring natijalarini tanqidiy muhokama qilib borish hamda mas’uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga tegishli choralar ko‘rib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga;

- har bir deputat o‘z saylov okrugida tibbiyot va ta’lim muassasalarida “dolzarb 90 kunlik” tadbirlari doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatishi va doimiy monitoring qilib borish;

- aniqlangan muammolar yuzasidan tegishli tashkilotlarga deputatlik so‘rovlarini kiritish bo‘yicha mauammolarni bartaraf etish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga o‘z takliflarini taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimi o‘rinbosari O.Shirinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH